



TERI INFEKSIYALARI!

Jumaboyeva Shahnoza

Annotatsiya: ushbu maqolada asosan teri infeksiyalari, ularning turlari ularning terida keltirib chiqaradigan kasalliklari. Infeksiyalarning terida keltirib chiqaradigan patologik jarayonlari hamda ularning oldini olish usullari, davolash diagnostikasi, teri kasalliklarini keltirib chiqaradigan ichki omillar, teri kasalliklari belgilari haqida ma'lumot berib boriladi.

Kalit soʻzlar: teri infeksiyalari, patologik jarayonlar, davolash diagnostikasi, ichki omillar, teri kasalliklari, HPV, herpes simplex, molluscum contagiosum, impetigo, cellulitis, furunkul, karbunkul, tinea corporis, tinea pedis, tinea capitis, kandidoz, scabies, koagulaza testi.

KIRISH

Teri infeksiyalari — bu teri va uning ostki qatlamlariga bakteriyalar, viruslar, zamburugʻlar yoki parazitlar tushishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklardir.

🔍 Teri infeksiyalari turlari:

Teri infeksiyalari toʻrt asosiy guruhga boʻlinadi:

1. Bakterial infeksiyalar ☐

Eng keng tarqalgan teri infeksiyalaridir.

Mashhur turlari:

Impetigo – bolalarda koʻp uchraydi, yuz va qoʻllarda pufakchalar. Cellulitis – chuqur qatlamlarga tarqaladi, qizarish, shish va ogʻriq bilan kechadi. Furunkul (chiriy) – soch follikulasi atrofida yiring toʻplanishi. Karbunkul – bir nechta furunkul birlashganda.

✦ Asosiy bakteriyalar: Staphylococcus aureus, Streptococcus pyogenes

2. Virusli infeksiyalar ☐

Mashhur turlari: Herpes simplex (gerpes) – labda yoki jinsiy sohada pufakchalar. Molluscum contagiosum – terida mayda, silliq, markazi chuqurchali toshmalar. Teri uchi (verruka / siğil) – papillomavirus (HPV) sababli.

3. Zamburugʻli infeksiyalar (mikoza) ♣

Mashhur turlari: Tinea corporis (qurt kasalligi) – dumaloq qizil dogʻlar, markazi oq. Tinea pedis (oyoq zamburugi) – oyoq panjalarida qichishish, qizarish. Tinea capitis (bosh terisi mikozi) – bolalarda koʻp uchraydi. Kandidoz – Candida zamburugʻi sababli, ayniqsa nam joylarda (masalan, qoʻltiq osti)

4. Parazitar infeksiyalar 🦋

Mashhur turlari: Qurt (scabies/qashqqa) – teri ostida yashovchi Sarcoptes scabiei sababli. Bit (pedikulyoz) – boshda, badan yoki kiyimda yashaydigan parazitlar.

🔍 Belgilari:

- Qichishish
- Qizarish
- Shish
- Yiringli pufakchalar



- Teri qurishi yoki yorilishi
- Og'riq yoki noqulaylik

§ □ Davolash: Bakterial infeksiyalar – antibiotiklar (krem yoki og'iz orqali) Virusli infeksiyalar – antivirus vositalari (gerpes uchun masalan: asiklovir) Zamburug'li infeksiyalar – antifungal kremlar yoki dori (masalan: klotrimazol, flukonazol) Parazitar infeksiyalar – antiparazitar dorilar (masalan: permetrin)

✓ Oldini olish: Shaxsiy gigiyenaga amal qilish. Sochiq, kiyim, ustara kabi buyumlarni bo'lishmaslik. Teri shikastlarini toza saqlash. Nam joylarni quruq tutish.

Staphylococcus aureus — bu gram-musbat bakteriya bo'lib, odatda odam terisi va burun bo'shlig'ida yashaydi. Ba'zida zarar qilmasdan turishi mumkin, lekin immunitet pasayganda yoki teri shikastlanganda bu bakteriya jiddiy infeksiyalar keltirib chiqaradi.

Teri kasalliklari - odam va hayvonlar organizmidagi shilliq qavatlar, teri hamda uning hosilalari (soch, tirnoq) patologik o'zgarishi bilan ifodalanadigan kasalliklar guruhi. Odam uchraydigan Teri kasalliklari toshma toshishi, dog', pufakcha, tuguncha, qipiqlanish, yaralanish, terining shilinishi, yorilishi va boshqa tarzida namoyon bo'ladi. Tashqi muhitdagi har bir fizik va kimyoviy omillar terida turli yallig'lanishlar (dermatitlar) paydo bo'lishiga olib keladi; bulardan qavarish, bichilish, sovqotish, kuyish birmuncha ko'proq uchraydi. Terining talaygina kasalliklariga biologik omillar, mikroskopik zamburug'lar (qarang Terining zamburug'li kasalliklari), bakteriyalar, hayvon parazitlari (qarang Qo'tir) va viruslar (qarang: So'gal, Uchuq) sabab bo'ladi.

Ichki omillar: mahalliy, infeksiya o'chog'i bo'lishi (mas., murtak bezlari, qovuqda), ichki a'zolar (me'da, buyrak, jigar) kasalliklari ekzema, eshakem kabi allergik tavsifdagi (qarang Lglergiya) Teri kasalliklariga olib kelishi mumkin. Organizmda oqsil, uglevod va yog' almashinuvining buzilishi, shuningdek, vitaminlar yetishmasligi, nerv (mas., neyrodermit) va endokrin sistema faoliyatining buzilishi (mas., seboreya, husnbuzar), tomirlar, qon yaratish a'zolari va boshqalarning zararlanishi natijasida ham Teri kasalliklari yuzaga kelishi mumkin. Bularning hammasi terida yallig'lanish, qon quyilishi, pigmentatsiya va muguzlanishning buzilishi, teridagi ayrim tuzilmalar (biriktiruvchi to'qima tolalari, yog va ter bezlari, soch piyozchasi va boshqalar)ning nobud bo'lishi, qon aylanishi hamda teri oziqlanishining izdan chiqishi kabi patologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunda teriga har xil kattalikda toshmalar toshishi (dermatozlar), tugunchalar paydo bo'lishi, ba'zan bu tugunchalar ichida qon yoki yiring tuplanishi mumkin. Toshmalar qichishishi, achishishi, ba'zilar bemorni mutlaqo bezovta qilmasligi mumkin. Infeksion (qarang: Ich terlama, Qaytalama terlama, Skarlatina, Chechak va b.), shuningdek, venerik kasalliklarda ham teriga toshmalar toshishi kuzatiladi. Toshmalar tabiatini faqat mutaxassis vrach to'g'ri aniklab, diagnoz qo'yishi va davo tayinlashi mumkin. O'z bilgicha davo qilish turli ko'ngilsizliklarga olib keladi. Shuning uchun Teri kasalliklariga xos dastlabki alomatlar paydo bo'lganda, albatta, vrachga murojaat etish va uning maslahatlariga beqamu kust amal qilish lozim.

Lab diagnostika:

-Mikroskopiya va ekish – yiring, qon, balg'am namunalaridan



-Koagulaza testi – ijobiy bo'lsa, S. aureus

-Antibiotik sezuvchanlik testi – MRSA yoki yo'qligini aniqlash

TERI XASTALIKLARINI DAVOLASH BO'YICHA UMUMIY QOIDALAR !

Ko'pgina kasalliklarga mahalliy, ya'ni faqat terining o'ziga mo'ljal-

lab davo qilinsa-da, lekin ba'zan umumiy davolash usullari ham yordam

beradi: Agar terining biror joyi qizarib og'rib turgan yoki yiring to'playotgan bo'lsa, uni issiqlik bilan davolang. Issiq, namlangan sochiqni ustiga qo'ying (issiqlik kompres)

2 - Qoida Agar terining biror joyi qichishsa, sanchisa yoki undan toza suyuqlik oqsa, sovuqlik bilan davolang. Sovuq, ho'llangan sochiqni jarohat ustiga qo'ying (sovuq kompress)

1- QOIDA (batafsilroq)

Agar terida quyidagilar bo'lsa:

- yalig'lanish (qizarish yoki shikastlangan joy atrofi ning qorayishi)
- shish
- og'riq
- issiqlik (o'sha joy qizisa)
- yiring singari jiddiy infeksiyalar belgilari paydo bo'lsa.

Quyidagilarni bajaring:

● Teri yarasi bor joyni harakatlan- tirmang va yuqoriroq ko'tarib qo'ying (uni boshqa tana a'zolaridan teparoq tuting).Issiq, namlangan sochiqni qo'ying.

● Agar infeksiya og'ir bo'lsa yoki kasalning isitmasi chiqsa, antibio-

tiklar (penitsillin, eritromitsin yoki sulfanilamidlardan) bering.

Limfa tugunlarining shishib chiqishi (bez kelishi), yara atrofi da qizil

yoki qoramtir chiziqlar paydo bo'lishi yoki sassiq hid kelishi xatarli belgi-

lardir. Agar bular davolash jarayonida barham topib ketmasa, antibiotiklar ishlating

va tibbiy yordamga tez murojaat qiling.

2-QOIDA (batafsilroq) Agar teri yarasi bor joyda pufakchalar paydo bo'lsa yoki bu joy qattiqlashib, yiring yoki suyuqliklar to'plansa, qichishsa, sanchib og'risa yoki qizisa,

Quyidagilarni qiling:

◆ Oqsirka(uksus) qo'shilgan sovuq suvga ho'llangan sochiqni

qo'ying (1 litr qaynatilgan suvga 1 choy qoshiq sirka).

◆ Yara tuzalsa va yangi teri qalinlashsa yoki ko'cha boshlasa, uni yumshatish uchun ustiga o'simlik yoki eritilgan qo'y yog'l suring.

Xulosa!

Ushbu maqolada biz qishloq sharoitida ko'proq uchraydigan oddiy teri kasalliklari haqida fikr yuritimiz, xolos. Lekin teri kasalliklarining yuzlab turlari mavjud. Ularning ba'zi turlari bir-birlariga shunchalik o'xshaydi-ki,ularni ajratish qiyin, lekin sabablari va davolashlari turlicha bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Коротяев В.И. и другие. Медицинская микробиология.Санкт



- Петербург.2002. Электронная версия.
2. Мухамедов И.М. вабошқалар. Тиббиётвирусологияси.Т.2013. Янги аср авлоди.
 3. Мухамедов И.М. и другие. Электронная версия учебника. “Микробиология вирусология и иммунология” Т.2012.
 4. Мухамедов И.М. и другие. Учебное пособие по общей микробиологии, Т., 2008. Янги аср авлоди.
 5. Поздеев О.К Медицинская микробиология —М.2006. ГОЭТАРМЕД.
 - 6.. Справочник по микробиологическим и вирусологическим методам исследования. Под редакцией Биргера М.О.М.1982. “МЕДИЦИНА”.
 7. Internet reusrlari.